

**D.URINBAYEVA**

**O'QUVCHILARDA VERBAL VA NOVERBAL  
MATNLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
HUDUDiy MARKAZI**

**D.URINBAYEVA**

**O'QUVCHILARDA VERBAL VA NOVERBAL  
MATNLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH**

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy-metodik kengashining 2021-yil .....-sonli yig'ilishi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

**SAMARQAND - 2021**

**D.Urinbayeva. O'quvchilarda verbal va noverbal matnlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. - Samarqand, 2021. 56 bet.**

Mas'ul muharrir: M.Raximova

Taqrizchilar: f.f.n., dots. R.Suvonova

f.f.n., dots. G.Fayzullayeva

Uslubiy qo'llanmada matnga aloqador tushunchalarning o'rganilish tarixiga oid nazariy va amaliy masalalar, matn tuzish, shakllantirish, ixchamlashtirish, tahrir qilish, matn tarkibi, PIZA tadqiqotlarida matn ustida ishlash, matnda kommunikativ maqsadning ifodalanish usullari bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

Uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim muassasalari ona tili va adabiyoti fani, o'zbek tili fani o'qituvchilari, fan metodistlari, ota-onalar, shuningdek, ushbu soha bilan qiziquvchi barcha mutaxassislariga mo'ljallangan.

## **KIRISH**

Bugungi kunning dolzarb vazifasi o'quvchilarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, savodxon va ijodkor, eng asosiysi, zamon talablariga to'la javob beradigan qilib tarbiyalash, o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. Insonning verbal va noverbal matnni tushunish va undan foydalana olish qobiliyati, u haqida fikr yuritish, o'z maqsadiga erishish uchun o'qish bilan shug'ullanishi, o'z bilim va imkoniyatlarini kengaytirishi ijtimoiy hayotda ishtirok etishidir. Matnni anglashda o'quvchilar axborotni topish va ajratib olish, integratsiyalash va sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish va baholash, matnning mazmunini anglash kabi ko'nikmalarni hosil qiladi.

“Ta’lim to’g’risidagi Qonun”, “Milliy o’quv dasturi” dan kelib chiqqan holda o’quvchilarda ona tili ta’limi doirasida o’rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, fanning eng muhim tushunchalari, yutuqlari borasida ularda yetarli tasavvur hosil qilish, matn turlari, matn komponentlarining sintaktik, semantik, pragmatik munosabatlari, matnda dialog, monolog, polilog shakllarining

qo'llanishi kabi muammolar o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar asosida ona tili va adabiyot, o'zbek tili fani o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishga hamda davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni, nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallarni o'z ichiga oladi.

Mazkur qo'llanma mikromatn, makromatn munosabatlari, matn tarkibida monologik va dialogik nutq o'rni kabi masalalarning vujudga kelishi, rivojlanishi bo'yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash xususida fikr bildirilgan.

Mazkur qo'llanma o'qituvchilarda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi:

- matnga aloqador tushunchalarning o'rganilish tarixi, matnni tuzish, shakllantirish, ixchamlashtirish bilan bog'liq masalalar;

- xorijda matn masalasining o'rganilishga doir masalalarni ma'lumot olish;

- PIZA tadqiqotlarida matn ustida ishlash, matnda kommunikativ maqsadning ifodalanish usullari haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Ushbu qo'llanma o'quvchilarni matn ustida ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda onatili va adabiyoti, o'zbek tili fani o'qituvchilari, shuningdek, ushbu soha bilan qiziquvchi barcha mutaxassislariga va otanalar uchun maslahatchi bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

## **1-BOB. MATNNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Matn haqida qisqacha ma'lumot**

XXI asrda global, raqobatdosh jamiyatda yosh avlodni kundalikda uchraydigan turli vaziyatlarga tayyor bo'lishi uchun umumiy davlat standartlarining 9-standarti ta'lim oluvchilarning murakkab, adabiy va axborot matnlarni o'qish va yozish qobiliyatlari muhimligini ta'kidlaydi.

Ta'lim oluvchilarga yoki har qanday kishiga murakkab matnni tahlil qilishni o'rgatish oson emas. Barcha matnlarni tahlil qilish tartibi ham mavjud emas, chunki matnning o'ziga xosligi quyidagilar omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi:

Matnning tarkibi;

O'quvchining jinsi, yoshi, madaniyati va hayotiy tajribasi;

Matn uslubi;

Muallifning maqsadi va mo'ljallangan auditoriyasi;

O'quvchining o'qishdan maqsadi;

Matnni ishlab chiqish mazmuni;

O'qituvchining ko'rsatma berish uslubi.

Mahoratli o'qituvchilar - o'quvchilarning matnga qanchalik murojaat qilishlari mumkinligini bilishadi.

Hozirgi davrda matn va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar jahon olimlarining e'tiboridadir. Keyingi yillarda matnni

tushunish bilan bog'liq masalalarga yangi usullar tadbiiq qilinmoqda. Matnni o'rganishga yangi usullar asosida yondashuv I.A.German, G.P. Moskalchuk, V.A.Pishalnikova, V.N.Bazileva kabi rus tilshunos olimlari, A.Nurmonov, S.Mo'minov, M.To'xsonov, M.Hakimov, J.Sh.Safarov, M.M.Yuldashev kabi o'zbek tilshunos olimlarining tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Bunday nazariy yondashuvlar diskurs, dinamik sistema, gender yondashuv, nutqiy faoliyat, sinergetik jarayon kabi masalalarni zamonaviy tilshunoslik mezonlari asosida o'rganishni taqozo qilmoqda. Ta'kidlash joizki, matnning ta'rifi masalasida ko'pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo'q. **Matn atamasiga lug'atlarda yonma-yon bosma harf orqali aks ettirilgan nutq, umuman nutq parchasi<sup>1</sup>, deb ta'rif berilgan.** Ammo bu ta'rifda matnning asosiy xususiyatlari o'z aksini topmagan.

Tekst (matn) tushunchasining uchta ma'nosi ayirib ko'rsatmoq lozim: 1) textus (lot.) – mato, kiyim, aloqa, birlashmoq, qurmoq, bo'g'in, stil; 2) struktura, bog'lanmoq, aloqali sharh qilmoq; 3) texo – to'qimoq, o'ylab chiqarmoq, birga qo'shmoq<sup>2</sup>. Ushbu atamaning barcha etimologik o'zagidan hozirgi kunda «birlashmoq» ma'nosi ko'proq qo'llanmoqda. Chunki matn (tekst) gumanitar fanlararo

<sup>1</sup> Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент, 1985. 88 б.

<sup>2</sup> Интернет: <http://www.yspu.yar.ru> (2009, апрел).



tekshirish obyektiga aylangan. Matnning mohiyatini aniqlash va uni boshqa lisoniy hodisalardan farqlash uning o'ziga xos xususiyatlarini bilishni talab qiladi.

Tekst – nutq ko'inishi bo'lib, vazifasi jihatdan tugal nutqiy butunlikdir. Yagona kommunikativ vazifa bajaruvchi gap va gaplar yig'indisi tekst hisoblanadi<sup>1</sup>. Muallif matnning kommunikativ vazifa bajaruvchi nutqiy butunlik sifatida ekstralingvistik va intralingvistik ko'rsatkichlarga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Matn – bu so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajaradi<sup>2</sup>.

V.P.Belyanin tadqiqotlarida matnni tushunishda emotsional-ma'naviy xususiyatlar ham hisobga olingan. U matnni murakkab sistemaning elementi sifatida «voqelik-ong-dunyoning modeli-til-muallif-matn-o'quvchi-proyeksiya» modeli deb tushunadi va matnni «g'amgin», «quvonchli», «chiroyli», «faol», «murakkab», «yorqin» matnlar sifatida turlarga ajratadi. U badiiy matnning shakllanishida emotsional-ma'naviy faktorni asosiy deb hisoblaydi<sup>3</sup>. I.N.Gorelov va K.F.Sedov matn sharoit va vaziyatga bog'liq holda birgina so'z yoki harfdan iborat bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, metroga

<sup>1</sup> Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. -Тошкент, 1990.- 8 б.

<sup>2</sup> Turniyozov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi.- Samarqand, 2006.- 26 b.

<sup>3</sup> Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики: модели мира в литературе. - М., 2000.- с. 61.

kirish joyidagi «M» harfini misol tariqasida keltiradilar. Ularning ta'kidlashicha, birgina undov yoki so'roq belgisi ham sharoitdan kelib chiqqan holda bir tugal ma'no ifodalovchi matndir<sup>1</sup>.

A.A.Zalevskaya, matn insonning hosil qilishi va tushunishsiz grafemalarning o'lik tartibidan iborat bo'ladi, uning tirilishi uchun individ va matn bir madaniyatga mansub bo'lishi shart, undan tashqarida matn mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

Matnni tushunishda uning qaysi sohaning tadqiqot obyektiga aylanganligini hisobga olish zarurligini ta'kidlab o'tmog'imiz zarur. An'anaviy tilshunoslikka oid deyarli barcha tadqiqotlarda tahlil obyekti sifatida badiiy matn olingan, shuning uchun ham ularda matnga badiiylik nuqtai nazardan qaralgan. Darhaqiqat, matnning yaratuvchisi ham o'quvchisi ham bir madaniyatga mansub bo'lishi lozim. O'quvchining matnni tushunishi uchun hayotiy tajribasi ham zarur.

I.V.Savina «sinergiyaning funksional xususiyati sababli matn diskursiv bahoga ega bo'lib, «hayot yuklangan nutq»qa aylanadi»<sup>3</sup> deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, insonning dunyoqarashi,

---

<sup>1</sup> Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики.- М., 1997 // интернет: <http://www.yspu.yar.ru> (2008, ноябр).

<sup>2</sup> Залевская А.А. Текст и его понимание. - Тверь, 2001. - с.157// интернет: <http://www.yspu.yar.ru> (2008, декабр).

<sup>3</sup> Савина И.В. Глаголы коммуникации как функциональные операторы смысловой синергейности английского дискурса // Вестник Самарского гос.университета, 2006, № 10/2 // интернет: <http://www.yspu.yar.ru> (2008, декабр).

makon, zamon, mentaliteti matnda o'z aksini topadi. Jamiyat taraqqiyotiga bog'liq holda matnni tushunish ham o'zgarib boradi. Yangicha dunyoqarash eski tushunchalarni o'zgartirib, unga qayta baho beradi.

Yana bir rus olimi M.V.Lyapon ham matn tilshunosligi muammolarini murakkab sintaktik qurilmalar asosida talqin etishga intiladi. Uning fikricha, matn tavsifi quyidagi to'rt tamoyilga asoslanishi mumkin:

1. Matn - bu jumalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan-bir manba bo'lib xizmat qiladi.

2. Matn - bu so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajarib keladi.

3. Matn - bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.

4. Matn - bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pog'onasidir.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek olimlari matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug'ullana boshladilar. Bu jihatdan B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli

o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarning "Kirish" qismi "Tekst - lingvistik tahlil obyekti" deb nomlanadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o'ziga xos belgilari, matnni lisoniy tahlil qilishning metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari, ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar o'zbek tili faktlari misolida yoritilgan<sup>1</sup>. Shundan keyin asarda Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G'afur G'ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Komil Yashin kabi shoir, yozuvchi va dramaturglarning she'riy, nasriy va dramatik asarlaridan matnlar keltirilib, ularni lisoniy jihatdan tahlil qilish namunalari berilgan. Bu asarda to'g'ri ta'kidlanishicha, "umumiy tilshunoslikdagi nazariy fikrlar asosida tekst (matn)ning mohiyati, tuzilishi, mazmuni, fikrni yuzaga chiqarishdagi roli kabi qator muammolarni yoritish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir<sup>2</sup>".

## **1.2. Matn tiplari va tarkibiy qismlari**

Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o'rin tutadi. Asosiy kanal, albatta, tildir. Uning ikki asosiy

---

<sup>1</sup> Ўринбоев Б., Қўнгуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили / - Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 6-40.

<sup>2</sup> Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы // Новое в зарубежной лингвистике, выпуск VIII. – М: Прогресс, 1978. – С. 5-39.

shakli mavjud: og'zaki va yozma. Bu ikki matn tipining o'ziga xos jihatlari mavjud. Matndagi axborotning hajmiga qarab, kichik hajmdagi axborotni ifoda etsa *minimal matn (minimatn)*, katta hajmdagi axborotni ifoda etsa *maksimal matn (maksimatn)* kabi tiplarga ajratiladi. Masalan, maqol, matal, to'rtlik, fard, ariza kabilar minimal matn, roman, qissa, darslik, ma'ruza kabilar maksimal matnlar sanaladi.

Ma'lumotlarning qoliplashganligi yoki qoliplashmaganligini asos qilib, ikki tipi ajratiladi: *turg'un tarkibli matnlar* (ma'lumotnoma, dalolatnoma, annotasiya kabilar) va *erkin tarkibli matnlar* (maqola, hikoya, she'r, roman kabilar).

Matnlar nutqiy muloqotning asosiy shakllariga ko'ra: *hikoya, tasviriy va muhokama* matnlar.

Matnni tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'ladi: til kodlari; predmtli; sujetli-kompozitsion; emotiv; obrazli-madaniy; kommunikativ; estetik.

Til kodlari ikkiga bo'linadi: kodli matnlar (alfavit va raqamlar) va yarimkod matnlar (verbal va noverbal).

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, matnning og'zaki va yozma shakllari mavjud. Shu nuqtayi nazardan, og'zaki matnlar kommunikatsiya jarayoni bilan bog'liq bo'ladi.

**Kommunikatsiya** -bu odamlarning o'zaro faoliyatdagi biri-biri bilan bo'lgan axborot ayirboshlashuvidir. Boshqacha aytganda, kommunikatsiya - bu muloqot.

O'qituvchi nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikri hamda his-tuyg'ularini aniq, ravshan ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladi va bu o'qituvchilik kasbi uchun juda ham muhimdir. Har qanday ma'lumotni ishoralar tizimi orqali uzatishi mumkin. Bu borada *verbal va noverbal* kommunikatsiya turlarini ajratmoq lozim.

*Verbal* - kommunikatsiya - bu nutq.

*Noverbal* - nutqsiz, so'zlashuvsiz kommunikatsiyadir. Noverbal kommunikatsiya usullari nutq bilan so'zlashuvni to'ldiradi. O'rtacha olganda kishi bir kunda 30 daqiqa atrofida so'zlashadi. Verbal kommunikatsiya orqali axborotning taxminan 7% uzatiladi (ishbilarmonlar orasida muloqotda 35%), noverbal muloqotda esa 60% dan 70% gacha axborot uzatiladi. Shuning uchun ham, ming marotaba eshitgandan ko'ra, bir marotaba ko'rgan afzal deyishadi. Boshqacha aytganda, noverbal kommunikatsiya nutqiy so'zlashishga qaraganda ma'lumotlarga ancha boydir.

*Verbal kommunikatsiya* - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni

bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi. Verbal kommunikatsiya - bu so'zlashish.

*Verbal matnlar* esa yozma matn mahsulidir. Verbal matnlar adresatlarga ma'lumot yetkazish uchun yaratiladi. Ularni talqin qilishda matnning "texnik" jihatlari muhim emas: shrift, rang, ustunlar bo'linishi, qog'oz turi, rasmlar va h.k. Texnik ko'rsatkichlaridan qat'iy nazar, matn mazmuni tarkib jihatidan bir xil tarzda qabul qilinadi. Yaratilgan (va "semiotik jihatdan boyitilgan") matnlarda ham tasviriy, ham vizual ko'rinishini idrok etishda matn turi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, matnning verbal va noverbal klassik namunasi A. de Sent-Ekzuperining "Kichkina shahzoda" ertagidir, unda og'zaki matn va muallif rasmlari yagona bo'linmas butunlikni tashkil etadi.

*Noverbal kommunikatsiya* og'zaki nutq mahsuli bo'lib, suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday

orqama-ketin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tkazib davra qurib o'qitgan ma'qul emish, chunki bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

*Noverbal matnning* og'zaki bo'lmagan (paralinguistik) elementlari qabul qiluvchiga bevosita beshta hissiyotga qaratilgan barcha lisoniy bo'lmagan vositalarni o'z ichiga oladi: ko'rish, eshitish, hid, sezish, ta'm bilish. Noverbal matndagi paralingvistik elementlar tilga tashqi ko'rsatkichlarning namunasi. Bunday ko'rsatkichlar birinchi navbatda ba'zi yozma belgilar bo'lishi mumkin, masalan, undov belgilari, undov va so'roq belgilarining kombinatsiyasi. Bunda matndagi turli xil rasmlar, grafikalar, jadvallar va hk. Ushbu turdagi belgilar, garchi grammatikaga tegishli bo'lmaganligi sababli, juda aniq bo'lsa-da, yozma tilda va to'g'ridan-to'g'ri noverbal matnda shubhasiz paralingvistik ahamiyatga ega. Belgilarning birinchi guruhi oddiy tinish belgilari sifatida emas, balki o'quvchiga biron bir ma'lumot olishiga va unga mos nutq talaffuzini tushunishga yordam beradigan tashqi belgi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, matnning rang-barang va shrift bilan



bezatilgan har xil turlari paralinguistik grafikaga tegishli bo'lishi kerak. Maxsus shrift yoki bo'yoq (masalan, gazetada - bo'yoqdagi sarlavhalar, katta bosma, matndagi kursiv) o'quvchini bayonotdan to'g'ridan-to'g'ri olingan ma'lumotlarga, ahamiyati va dolzarbligi haqidagi fikrni anglashga majbur qiladi.

"Matn faqat jumla uzunligi va bo'g'inlar soniga qarab qiyin, deb baholanadigan kunlar o'tib ketdi. Endi biz bilamizki, matnning murakkabligiga ko'plab omillar ta'sir qiladi", deb yozadi Timoti Shanaxan, Duglas Fisher va Nensi Frey "Ta'lim yetakchilari" kitobida. Olimlar fikriga ko'ra, matn murakkabligining oltita xususiyati inobatga olinadi:

Fikrlar yoki belgilar o'rtasidagi munosabatlar;

"Ma'lumotlar yoki adabiy vositalar orqali yetkazilgan" murakkab ma'lumotlar;

Murakkab va / yoki noan'anaviy tuzilish;

Murakkab uslub;

Talab qiluvchi va kontekstga bog'liq bo'lgan so'z boyligi;

Yashirin va / yoki noaniq maqsad.

Og'zaki bo'lmagan matnlar va ularni talqin qilish strategiyalari juda ko'p. Bunday murakkab matnlarni Jim Burkning ko'rsatmalari asosida o'qish bugungi kunda keng yoyildi.

Ta'lim oluvchilar signallarni talqin qilish va tegishli signallarni yuborish uchun imo-ishoralarni va tana tilini qanday o'qishni o'rganishdan zavqlanishadi .

Noverbal muloqot bir necha turga bo'linadi:

**1. Vizual noverbal muloqot bu tur ham yettiga bo'linadi:**  
**kinetika** (bosh, oyoq, gavda, qo'l harakati, yurish); **gavda tutishi**; **proksemika** (makon va zamoni tashkil qilish - distansiya); **ko'z qarashi**; **yuz holati**; **teri reaksiyasi** (terlash, qizarish, oqarish); **tashqi belgilar** (kiyinish, yosh, jinsi, ko'rinishi, soch turmagi), inson imo-ishoralari, veb-saytlar, raqs, og'zaki bo'lmagan reklama, flesh-moblar, fotosuratlar, videolar, rasmlar, diagrammalar, kollajlar.

**2. Akustik noverbal muloqot 2ga bo'linadi:**  
**paralingvistik** (ovoz, toni), **ekstralingvistik** (pauza, kulgu, yo'tal, uf tortish), tovushlar, musiqa, remiksli multimedia.

**3. Taktil noverbal muloqot:** ko'rishish, teginish, quchoqlashish, o'pishish.

**4. Olfaktor noverbal muloqot:** yoqimli va yoqimsiz hidlar, insonning tabiiy va sun'iy hidi.

Noverbal matn ham verbal matn singari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. **Kommunikativ:** muloqot, axborot almashish, aloqa o'rnatish.

2. Axborot bilan ta'minlash: bilish, turli ma'lumotlarni yetkazish.

3. Interfaol: motivatsiya uyg'otish, biror faoliyatni amalga oshirishga undash.

4. Anglash: o'zaro tushunish, bir-birini anglash.

5. Ekspressiv: emotsiya, holat, kayfiyatni yetkazish.

## 2-BOB. MAKTABDA QANDAY MATNLAR BILAN ISHLAYMIZ?

### 2.1. PISA tadqiqot doirasida matn tavsifi

Xalqaro baholash dasturlari PISAda o'qish savodxonligi o'quvchilarning qobiliyatini baholaydi. Bu simulyatsiya qilishga qaratilgan "haqiqiy" hayotda duch keladigan vaziyatlarni hal qila olishga o'rgatadi. Shu maqsadda matnda o'qish savodxonligida beshta jihat baholanadi. O'quvchilar ana shu besh jihatdan birini bajarolmasalar, keyingisini bajarishlari mumkin, shuning uchun ham PISAda noto'g'ri javob degan tushuncha bo'lmaydi.

O'qish savodxonligi matnni to'liq tushunishning quyidagi besh jihatini hisobga oladi:

- matn mazmuniga umumiy yo'naltirilganlik va uning yaxlit ma'nosini tushunish (topshiriqlarning 20%);
- axborotni aniqlash (topshiriqlarning 20%i);
- matnni sharhlash (topshiriqlarning 30%i);
- matn shakliga munosabat (topshiriqlarning 15%i);
- matn mazmuniga oid munosabat (topshiriqlarning 15%i).

*Matn mazmuniga umumiy yo'nalganlikni aniqlash va uning umumiy ma'nosini tushunish uchun matnning asosiy mavzusini, umumiy maqsadini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Shu*

maqsadda matndan mavzuni ajratib olish yoki o'quvchidan o'zi uchun sarlavhani kashf qilish, matnning umumiy ma'nosini ifodalovchi tezisni shakllantirish, matnda taqdim etilgan ko'rsatmalarning tartibini tushuntirish, jadval yoki jadvalning asosiy mazmunini aniqlash, xarita yoki rasmning maqsadini tushuntirish, kitob nashri va matnning xususiyatlarini tushuntirish kabi vazifalar mavjud.

Matnning umumiy mazmunini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar o'quvchilarga matnning bir qismi va uning umumiy g'oyasini qamragan savol bilan, matnning bir qismi va muallif tomonidan berilgan o'ziga xos izohlar bilan bog'liqlikni topish taklif etiladi; matn asosiy g'oyasining ikkinchi darajali go'yasidan ajratish qobiliyatini namoyon qilish imkoni beriladi.

*Matndan axborotni ajratish qobiliyatini aniqlash* uchun o'quvchiga ushbu maqsadga yo'naltirilgan savol beriladi va o'quvchi matnga ko'z yugurtirib undan asosiy elementlarni aniqlaydi, zaruriy axborotni izlash bilan shug'ullanadi.

*Matnni sharhlash qobiliyatini aniqlash, uning kontseptual ma'nolarini ishlab chiqish* uchun o'quvchilarga matndagi ma'lumotlarni solishtirish va farqlashni, unda ilgari surilgan tezislarni tasdiqlash uchun dalillarni aniqlashni, shakllantirilgan fikrlardan xulosa chiqarishni, muallifning

niyati yoki matn g'oyasi bo'yicha xulosa chiqarishni taklif etish maqsadga muvofiqdir.

*Matn mazmuniga munosabatini aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarda o'quvchi topshiriqlarni bajarishda matndagi ma'lumotlarni boshqa sohalardagi bilimi bilan bog'lashi, matndagi ma'lumotlarni borliq haqidagi qarashlari asosida baholab, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish uchun asos, dalil topishi kerak. Matnni tushunishning ushbu aspekti o'quvchilarda yuqori darajadagi aqliy qobiliyatlar, tanqidiy fikrlash malakasi, mustaqil estetik qarashlar mavjudligini taqozo etadi*

*Matn shakliga munosabatini aniqlash uchun o'quvchilar topshiriqni bajarishda matnning nafaqat mazmunini, balki uning shaklini ham, va umuman, uning bajarilish sifatini baholaydilar. Matnni tushunishning bu aspekti yetarli darajada tanqidiy fikrlash malakalari rivojlanganligini va mustaqil estetik qarashlari mavjudligini nazorat qilishni nazarda tutadi. Ushbu topshiriqlar muallif niyati va matn shakli mutanosibligini, sharh uslubi va shu kabi boshqa jihatlarini baholay olish imkoniyatiga e'tibor qaratadi.*

Topshiriqlarni bajarish uchun o'quvchi matnning strukturasi, janrining xususiyatlari, matndagi ironiya, hazil, so'z bilan ifodalangan soya tushunchalarini, muallifning

ovozini eshitish qobiliyatiga ega bo'lishlari va muallifning rasmlarini taqqoslashni bilishlari kerak.

O'qishning barcha aspektlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ularning biri ikkinchisining muvaffaqiyatli bajarilishiga bog'liq. Matnning har bir aspektga ko'ra to'liq tushunilishi o'quvchi kompetentligining ma'lum bir darajasini taqozo etadi. Ushbu darajalar vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan savol va ko'rsatmalar yordamida aniqlanadi.

PISA'dagi barcha matnlar matnning asosiy ritorik maqsadiga muvofiq tasniflanadi. Bunday baholash turli xil o'qish turlarini ifodalovchi matnlarni tartibga solishni o'z ichiga oladi. Matn tarkibi, matn turlari, har qanday shakldagi yozma materiallar ya'ni hikoya yoki grafikli ma'lumotlarni tushunishi va ular PISA test topshiriqlarida keltirilganda to'g'ri yechim topa olishi kerak.

Matn turi quyida keltirilgan oltita toifalar bo'yicha tasniflanadi:

- tavsif (texnik qo'llanmadagi jarayon, katalog, blog, kundalik);
- rivoyat (roman, gazetadagi reportaj);
- ekspozitsiya (insho, ensiklopediyaga kirish);
- argumentatsiya (muharrirga xat, onlayn forumdagi xabarlar);

- yo'riqnoma (retsept, dasturiy ta'minotni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar);
- tranzaksiya (yangiliklarni baham ko'rish uchun shaxsiy xat, uchrashuvni tashkil qilish uchun sms).

2018-yildagi PISA tadqiqoti doirasi matnning to'rt xil yo'nalishini belgilaydi:

- manba (bitta, bir necha);
- tuzilishi (yaratuvchi va yo'naltiruvchi);
- shakl (davomli, qisqa, aralash);
- tur (tasvirlash, hikoya qilish, tushuntirish, munozara, muloqot, dalolatnoma).

Matn turlarining mukammal tasnifi mavjud emas. Aynan bir matnda har xil turdagi belgilar bo'lishi mumkin. Tadqiqot maqsadlari uchun matnlarning quyidagi umumiy xususiyatlari eng muhim deb topildi: ular mazmunidagi o'zaro bog'liqlik va izchillik; real, faktografik (ilmiy, iqtisodiy mazmundagi matnlar) va o'ylab topilgan (sun'iy vaziyatga asoslanish), badiiy (badiiy, publisistik va boshqa matnlar). Tadqiqotda barcha turdagi matnlar, shuningdek, keltirigan tasnifning biron bir turkumiga mos kelmaydigan matnlarda ham foydalaniladi.

PISA-2000 doirasi va baholash dasturning o'zagi bo'lgan matnlarni tasniflashning muhim usuli uzun va qisqa matnlarni bir-biridan farqlashni taqozo etadi.



**Uzun matnlar** – bu odatiy matnlar jamlanmasi bo'lib, sahifalarga taqsimlangan bo'ladi. Ularga misol sifatida ro'znomalardagi maqolalar, insholar, romanlar, qisqa hikoyalar, taqrizlar va xatlarni keltirishimiz mumkin. Matnlar o'quvchilar farqlay olishi uchun sarlavhalar va mavzu bilan ajratib tuzilgan. Bunday belgilar (masalan, kiritmalar, tartibni bildiruvchi so'zlar (birinchidan, ikkinchidan), ko'makchilar birikmalar (shuning uchun, shu sababli), bog'lovchilar) matn chegaralarini ko'rsatuvchi belgilardan iborat.

**Qisqa matnlar** – bir qancha varaqlarning jamlanmasi shaklida beriladi. Qisqa matnlar ma'lum bir tartibda bo'ladi, shuning uchun ham ular turlicha o'qish usullarini talab etadi. Qisqa matn ko'rinishlari: ro'yxat, jadval, grafik, diagramma, e'lon, katalog, ilova, arizalardir. Bunday matn ko'rinishlari o'zgarmas va dinamik bo'lishi mumkin.

Qisqa matnlarning bir turi grafikli matnlar quyidagi foizlarda anglashiladi:

- 1) grafik (vazifalarning 11%),
- 2) diagramma (3%),
- 3) jadval (11%),
- 4) xarita (3%),
- 5) shakllar (soliq, viza, profillar va boshqalar) (3%);
- 6) axborot varaqalari va e'lonlar (topshiriqlarning 2%).

**Aralash matnlar** - ko'plab o'zgarmas va dinamik matn - yagona, bir-biri bilan ma'no jihatdan bog'liq bo'lgan qisqa va uzun matn shakllaridan iborat. Shuning uchun ular aralash matn deyiladi. Bunday matn turlariga rasmi sahifalar yoki tagida tushuntirish berilgan sahifalar kiradi.

**Yaxlit matn** - turlari barcha standartga muvofiq nasriy shaklda bo'ladi. Bosma va raqamli ommaviy axborot vositalaridagi ko'plab matnlar bitta, izchil artefaktlar bo'lib, ular yaxlit va yaxlit bo'lmagan qisqa matnlar to'plamidan iborat. PISAda ishlatiladigan turlari:

1. Ta'rif - obyektlarning xususiyatlarini anglatadi. Odatda "nima?" savollariga javob beradi.

2. Hikoya - obyektlarning xususiyatlarini anglatib vaqtni anglatadi. Odatda "Qachon?" yoki "qanday ketma-ketlikda" degan savollarga javob beradi.

3. Ekspozitsiya - kompozitsion tushunchalar yoki aqliy konstruktsiyalar yoki ushbu elementlarning ichidagi tushunchalar yoki aqliy konstruktsiyalarni tahlil qilishi mumkin. Bunday matnlar "Qanday?" savollariga javob bo'ladi.

4. Argumentatsiya - tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarga misollar keltiriladi. Ko'pincha "Nima uchun?" degan savollarga javob beradi.

5. Yo'riqnoma (ba'zan buyruq deb ataladi) nima qilish kerakligi haqida ko'rsatmalar beradi. Ular qoidalarini o'z ichiga oladi va muayyan xatti-harakatlarni ko'rsatadigan nizomlardan iborat bo'ladi.

Yaxlit matn turlari bo'yicha o'qish vazifalari quyidagicha taqsimlanadi:

- 1) tavsiflash (badiiy va texnik), topshiriqlarning 13% i;
- 2) axborot berish (hikoya, hisobot, hisobot) topshiriqlarning 22% i;
- 3) tushuntirish (tushuntirish tarkibi, ta'rifi, talqin, xulosa, sharh), 13%;
- 4) argumentlar (izoh, ilmiy asoslar) 13% i;
- 5) yo'llanma, ko'rsatma (ishni bajarish bo'yicha ko'rsatma, qoidalar, normativ-huquqiy hujjatlar) 5% i.

Matn orqali o'quvchining *tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish* ko'nikmalari shakllanadi. Avvalo, matn tuzish texnikasini o'rganadi. O'zi matn tuzib, yoza oladigan bo'ladi. Matn lug'ati bilan ishlash jarayonida qanday so'zlardan foydalanish kerakligi, shu o'rinda, aynan, qaysi so'z qo'llansa, o'rinli bo'lishini tushunadi. Matnga savol berishni o'rganadi. Aytilmoqchi bo'lgan asosiy fikrni ajratib oladi. Savollarga xoh to'g'ri, xoh noto'g'ri javob berish jarayonida mustaqil fikrlaydi.

Ba'zi matnlarga sarlavha qo'yilgan, ba'zilariga esa yo'q. Sarlavha tanlash jarayonida matndagi asosiy fikrni anglab yetib, uni qisqa va mazmunli jumlada aks ettirishni o'rganadi. Lug'at bilan ishlash jarayonida o'quvchi o'zi uchun yangi bo'lgan so'zlar izohini o'rganadi, lug'at boyligi oshadi.

## **2.2. Matn bilan ishlash ilg'or texnologiyalari**

Ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan matn bilan ishlash texnologiyalari ta'im oluvchining kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, uni o'zini-o'zi boshqarish, nazorat qilishga undaydi, pedagogika, lingvistika va lingvodidaktika va matnni markazlashtirish tamoyillari yutuqlaridan foydalanishda integrativlik tamoyillarini qo'llash imkonini beradi.

Olimlar o'rganilayotgan matnlar mazmuniga urg'u berishning oltita usulini taklif qiladilar 1) baholovchi sifatlar; 2) kalit terminlar; 3) konnektorlar (birlashtiruvchi); 4) predikatlar ierarxiyasi; 5) leksik oppozitsiyalar tamoyili; 6) leksikada "umumiy-xususiy" / "xususiy-umumiy" mantiqiy aloqasi namoyon bo'lishi.

O'quvchi kodlashtirish va kodini yechish usuli orqali yangi shaxsiy malakalar hosil qiladi: 1) ta'limdan tashqari jarayonda moslashish; 2) ta'lim jarayonida mavjud matnga

shaxsiy nuqtayi nazarni singdirgan tekstni markazlashtirish tamoyilininig singdirilishi va 3) o'zini-o'zini rivojlantirishda matn. Aynan mana shunday matnlarda o'quvchining mavzu borasidagi ta'lim va kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Matn ustida ishlash topshiriqlari uch bosqichga bo'linadi. *Matn oldi bosqichi, matn usti bosqichi, matn osti bosqichiga* bo'linadi.

*Matn oldi bosqichida* "Aqliy hujum", oldindan bashorat qilish, ya'ni matn sarlavhasi asosida matnda aytib o'tilgan muammolar bo'yicha o'quvchilarning bor bilimlarini aniqlash, savollarga javoblar kabi mashqlardan foydalaniladi.

*Matn usti bosqichiga* jadvalni to'ldirish, matn rejasini tuzish, matnning har bir abzatsiga sarlavha tanlash, tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yish, to'g'ri/ noto'g'ri mulohazalarni aniqlash, rasmlarni matndagi gaplar bilan birga muvofiqlashtirish, gaplarni mantiqan qayta guruhlash, matnni paragraflarga bo'lish va h.k.kiradi.

*Matn osti bosqichida* xulosaviy fikrlar berish, ya'ni matnda ko'tarilgan har bir masalaga o'z munosabatini bildirish, matn tuzilishidan kelib chiqib, boshqa janrda o'z matnini tuzish va hokazolar kiradi.

Matn bilan ishlash texnologiyalariga "Insert", "Pinbord", "Soxta Vikipediya", "Qiyinchilik g'altagi", "Birgalikda harakat

qilish" metodlari, "Autentik materiallar", "Bosma materiallar bilan ishlash", "Tushunchalar asosida matn tuzish", "Ikki qismli kundaliklar", "Surat ustida ishlash" kabilar kiradi.

### 2.3. Verbal matnlar ustida ishlash



**1-topshiriq. "Insert" metodi asosida matnni tahlil qilish.**

Uyushiq bo'laklar sintaktik jihatdan teng bo'ladi. Bular boshqa bir so'z bilan bog'lanishda tenglik saqlaydi, ya'ni yo ikkalasi boshqa bir bo'lakka tobe, yo boshqa bir bo'lak bularning ikkalasiga tobe bo'ladi. Ular qanday so'z bilan ifodalanishi – so'z turkumlari va grammatik formalari jihatidan ham bir xil bo'ladilar. Biroq bunday bir xillik doim shart emas.

(√) - men bilaman deganni tasdiqlovchi belgi;

(+) - yangi axborot belgisi;

(–) - mening bilganlarimga, zid belgisi;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak belgisi.



## **2-topshiriq. “Menyu” metodi asosida matnni tahlil qilish.**

Yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ish olib borishni boshlagan ijodkor o'qituvchiga “Menyu” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruhga aniq topshiriqlar beriladi. Masalan, ilmiy, rasmiy, badiiy va publisistik matnlardan namunalar tayyorlanadi. Bu namunalar orqali har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlanadi.

**Topshiriq:** 1. Har bir guruh bir turdagi matnni qolgan matnlar orasidan ajratib olish. 2. Matnda murakkablashgan gaplarning qaysi turi qatnashishini aniqlash va ularni ajratib olish.

Har bir guruh o'ziga topshiriq oladi va 3 daqiqa davomida muhokama qilishadi.

So'ngra har guruhdan bittadan vakil kelib, o'qituvchi stoliga kelishadi va tayyor “Menyu”ni olib qaytishadi. Bu menyuda bir necha turdagi matnlar bo'lib, ular orasidan o'zlariga berilgan topshiriqqa mos matn tanlanib, topshiriqning keying shartlari bajariladi. 10 daqiqa davomida topshiriq muhokama qilinadi, bajariladi va rasmiylashtiriladi. Bu jadvalda tayyorlanishi ham mumkin yoki og'zaki tarzda

bajarilishi ham mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi. O'qituvchi esa har bir guruhni va guruh sardorlarini baholaydi.

№	Matnlar ichidan ilmiy matnни ajratib oling.	Tanlangan matnda murakkablashgan sodda gaplarning qanday turlari mavjud.	Murakkablashgan sodda gap turlarini matndan ajratib oling va jadvalga kiriting.	Qanday maqsadda qo'llanilgan?	Qanday vositalar bilan bog'langan?
	O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.				
	Navro'z - Onayerga muhabbat, tabiatga ixlos uyg'otadi. Navro'z - mehnatga va yashashga ishtiyoq, g'ayrat beradi. Navro'z - yor-u do'stlarni, yaqin-yiroqlarni, qarindosh-urug'larni diydor				



	ko'rishtiradi.				
	Birinchi soatdagi darsda Asror o'z mayli, o'z xayollariga bandi bo'lib o'tirdi. Unga hech kim halal bermadi. Aljabr muallimasi - ellikdan oshgan, behad semiz ayol Asror borligi sababli shu sinfga kirishga yuragi bezillab turadi.				
	Xloroplast stromasida yashil xlorofil, to'q sariq ksantofill pigmentlari sintez qilinadi. Yuksak o'simliklarning xloroplasti yumaloq, oval shaklida bo'ladi. Tuban o'simliklarda, xususan suvo'tlarda xloroplast xromatofor deb yuritiladi.	Uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, kiritma	yashil xlorofil, to'q sariq ksantofill; yumaloq, oval; Tuban o'simliklarda, xususan suvo'tlar; xususan.	Uyushiq bo'lak - ixchamlik va tejamkorlik; Ajratilgan bo'lak - qayta izohlash kiritma matn talabi bilan	Uyushiq bo'lak ohang bilan, ajratilgan bo'lak kiritma bilan



**3-topshiriq. "Qiyinchilik g'altagi" metodi asosida ushbu matndan o'zingiz tushunmagan tushuncha, gaplarni yozing.**

Ajratilgan sifatlovchilar predmetlarning ma'lum belgisini bo'rttirib, gap tarkibida boshqa bo'laklarning ma'nosidan ajratib ifodalaydi, diqqatni ana shu belgiga qaratadi: Ajratilgan sifatlovchilarda predmetning ma'lum belgisini bo'rttirib, ajratib ifodalash mazmunigina ifodalanib kelmasdan, boshqa qo'shimcha ma'no ottenkalari ham bo'ladi. Shoir yoki yozuvchining sifatlovchini-ajratishdan asosiy maqsadi ham ana shu qo'shimcha ma'no ottenkalarini ifodalashdir. Ajratilgan sifatlovchining tarkibi kengaymay, kesim bilan yonma-yon kelsa, holga ham juda yaqinlashadi. Ajratilgan sifatlovchili gaplarning asosiy belgilaridan biri shuki, bu xil gaplarning kesimi asosan fe'l kesim bo'lib, u ma'lum sifatlovchining ajratilgan ekanini yaqqol ko'rsatib turadi. Ot kesim bo'lgan taqdirda esa, sifatlovchining ajratilgan ekani yaxshi anglashilmaydi; gapning mazmuni, bo'laklarning munosabati aniq bo'lmay qoladi.

Matn kichik guruhlariga tarqatiladi. Guruhlar matnni o'qiydi. Har bir guruh qo'llaridagi oq qog'ozga tushunmagan gaplarni yozishadi. Bu yozuvlar anonim xarakterida bo'lib, so'rovchi shaxsi noma'lumligicha qoladi. Qog'ozga faqat guruh raqami qo'yiladi.

1-guruh. Ajratilgan sifatlovchining tarkibi kengaymay, kesim bilan yonma-yon kelsa, holga ham juda yaqinlashadi.

2-guruh. Ajratilgan sifatlovchili gaplarning asosiy belgilaridan biri shuki, bu xil gaplarning kesimi asosan fe'l kesim bo'lib, u ma'lum sifatlovchining ajratilgan ekanini yaqqol ko'rsatib turadi.

3-guruh. Ot kesim bo'lgan taqdirda esa, sifatlovchining ajratilgan ekani yaxshi anglashilmaydi; gapning mazmuni, bo'laklarning munosabati aniq bo'lmay qoladi.

4-guruh. Shoir yoki yozuvchining sifatlovchini-ajratishdan asosiy maqsadi ham ana shu qo'shimcha ma'no ottenkalarini ifodalashdir.



**4-topshiriq. "Soxta Vikipediya" metodi asosida matnni tahlil qiling.**

**1-bosqich.**

O'tilgan mavzular bilan bog'liq matnni diqqat bilan o'qing.	Matndagi xatoliklarni aniqlang.
Asl ismi-sharifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1983 yilda Andijonda tug'ilgan. O'zbek shoiri, tarjimoni va san'atshunos olimi. Cho'lpon - uning adabiy taxallusi. U avval madrasada, keyin rus-tuzem maktabida ta'lim olgan. Cho'lpon bir qator	1-xatolik: Asl ismi-sharifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1883 yilda Andijonda tug'ilgan. 2-xatolik: O'zbekiston badiiy studiyasi va boshqa tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan. 3-xatolik: Cho'lpon ajoyib shoir, mohir tarjimon va adib

<p>ro'znomalarda xizmat qilgan. O'zbekiston badiiy telekompaniyada va boshqa tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan.</p> <p>Cho'lpon ajoyib shoir, mohir tarjimon va adib edi. 1989 yilda uning "Kecha va kunduz" asari bosilib chiqdi.</p> <p>1927 yildan Cho'lponga hujum boshlandi. O'zbekiston madaniyat xodimlari 2-quriltoyida uni zaldan haydab chiqarishdi.</p> <p>1938 yil shoir qatl qilindi. Istiqlol yillarida o'zbek xalqining munosib farzandi qadr - qimmat topdi</p>	<p>edi. 1929 yilda uning "Kecha va kunduz" asari bosilib chiqdi.</p> <p>2-to'g'ri matnni o'qigandan keyin 2 ta topilmagan xatolikni talaba aniqlab, qog'ozga qayd qiladi.</p>
---	---

## 2 bosqich.

<p>Matnning to'g'ri variantiga e'tibor bering. Nechta xatolikni aniqlay olganingizni varaqqa qayd qiling.</p>
<p>Asl ismi-sharifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1883 yilda Andijonda tug'ilgan. O'zbek shoiri, tarjimoni va san'atshunos olimi. Cho'lpon - uning adabiy taxallusi. U avval madrasada, keyin rus-tuzem maktabida ta'lim olgan.</p> <p>Cho'lpon bir qator ro'znomalarda xizmat qilgan. O'zbekiston badiiy studiyasi va boshqa tashkilotlarda yuqori lavozimlarda ishlagan.</p> <p>Cho'lpon ajoyib shoir, mohir tarjimon va adib edi. 1929 yilda uning "Kecha va kunduz" asari bosilib chiqdi.</p> <p>1927 yildan Cho'lponga hujum boshlandi. O'zbekiston madaniyat xodimlari 2-quriltoyida uni zaldan haydab chiqarishdi.</p> <p>1938 yil shoir qatl qilindi. Istiqlol yillarida o'zbek xalqining</p>

munosib farzandi qadr – qimmat topdi.



**5-topshiriq. “Ikki qisimli kundaliklar” metodi asosida matnni tahlil qiling.** Uyushiq bo‘laklarni tanlab oling va o‘z munosabatingizni ikki tomonga yozing.

Bu siymo har narsaga qodir va kamtarin, hokisor va shafqatgo‘y, tanti va mag‘rur edi, bu siymo qiyofasida jilvalanayotgan shams ko‘nglini xushnud etadigan ko‘p yulduzli bodadan so‘ng uni saodatli va xushbaxt, ezgu va orzumand qiladigan, xayolining ko‘pdan buyon quyosh tegmagan zax va toyg‘oq ungurlarini isitadigan xulyo oftobi kabi munavvar va seryog‘du edi. Bu tal‘at adashgan insoniyatga haq va najot yo‘lini ko‘rsatishga mustahiq etilgan, o‘ktam va serg‘ayrat, loshidan xoki turobigacha yog‘dudan iborat, quyosh va oy bir-birini mangu quvlab yuradigan, umid va xayol sahrosida jizg‘anak bo‘lib qolgan mana shu xiyonat va jaholat zulmati g‘arq qilgan zaminga tiriklik va yashnash urug‘larini sepish uchun yuborilgan, qo‘lida zafar va shijoat suhurlari bor, o‘zi dunyoga kelmasdan ming yillar oldin nuri yaralgan, dunyoda zo‘rlik va adolat o‘rtasiga devor o‘rnata olgan, mag‘lublik va matlublik va undan hamisha o‘zini olib

qochgan shon-shavkat tulporini minib tug'ilgan o'sha Xaloskorning aynan o'zi edi (Nazar Eshonqul).

**Tanlab olingan uyushiq bo'laklar:** har narsaga qodir va kamtarin, hokisor va shafqatgo'y, tanti va mag'rur, saodatli va xushbaxt, ezgu va orzumand, zax va toyg'oq, munavvar va seryog'du, umid va xayol sahrosi, haq va najot yo'li, zafar va shijoat kabi.

Ma'qul	E'tiroz
Ikkinchi jumladagi saodatli va xushbaxt, ezgu va orzumand qiladigan birikmalari to'g'ri qo'llangan. Sinonimlarning qo'llanilishi ma'nini kuchaytirgan.	Birinchi jumladagi har narsaga qodir va mag'rur so'zlari uyushiq bo'laklar qatoridagi kamtarin, hokisor va shafqatgo'y qo'shilmalarini inkor qilmoqda.
qo'lida zafar va shijoat suhufdari bor birikmasi ham holatni ko'z oldimizga keltirishga xizmat qilgan.	Keyingi gapdagi umid va xayol sahrosi birikmasida umid so'ziga sahro so'zi birikkanda noto'g'ri bo'ladi.
quyosh va oy bir-birini mangu quvlab yuradigan birikmasi individual tasvir.	mana shu xiyonat va jaholat zulmati g'arq qilgan zamin birikmasida ham qandaydir g'alizlik bor.
o'ktam va serg'ayrat qo'shilmasi ko'rinish tasvirida alohida o'rin egallagan.	mag'lublik va matlublik va undan hamisha o'zini olib qochgan shon-shavkat tulporini minib tug'ilgan o'sha Xaloskorning aynan o'zi edi gapida ham mag'lublik va matlublik so'zlari teng bog'lanishni hosil qiladimi?



### **6-topshiriq. Tushunchalar asosida matn tuzish.**

Har bir kichik guruhga bir tayanch iboralar qatori tushadi. Tayanch iboralar asosida to'g'ri va to'liq tuzilgan matn muallifi bo'lgan guruh yuqori ball bilan baholanadi.

1. Sodda gap, ularning turlari, teng bog'lanish, so'rog'i, vazifasi, sanash ohangi, tobelanish.

2. Kesimlik shakllari, qo'shma gap, uyushtiruvchi ohang, so'z turkumi.

4. Umumlashtiruvchi so'z, tur-jins, butun-qism, ot, olmosh, fe'l, jamlovchi son.

5. Teng bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, ohang, tinish belgilari.

Bu usul asosan mustahkamlash bosqichida qo'llaniladi. Asosiy bosqichda bo'lsa, talabani faollashtirishga xizmat qiladi. Bu usul talabani xotirasini mustahkamlashga, o'z-o'zini nazorat qilish, baholashga, e'tibor qaratmagan tomonlarini qayta o'rganishga da'vat etadi.



**7-topshiriq. Quyida keltirilgan matndan gap bo'laklarini aniqlang.**

Ko'pchiligimiz hali maktabga bormasimizdanoq, ayrimlarimiz esa maktabda o'qiy boshlagach, o'zimizga kasb tanlaymiz. Kimdir mashhur sportchi, kimdir taniqli jurnalist, yana kimdir mohir tikuvchi, tergovchi, quruvchi, kosmonavt, harbiy mutaxassis bo'lishni orzu qiladi. Har birimiz shu ezgu orzuyimizga erishish, tanlagan kasbimizni egallash uchun tinmay o'qiymiz, izlanamiz, intilamiz.

1) sintaktik shakl yasovchi; 2) o'zak; 3) lug'aviy shakl yasovchi; 4) lug'aviy shakl yasovchi; 5) so'z yasovchi;



### Javobi

**To'ldiruvchi + aniqlovchi + ega + to'ldiruvchi + kesim**



**8-topshiriq. "Matndagi nozik ma'no" keysi.**

1.Bo'ri uyni yonlab o'tib borayotgan edi, tomda yurgan echki uni bo'ralab so'kishga tushdi. Bo'ri unga qarab dedi: "Xomtama bo'lma, birodar, meni so'kayotgan sen emas - turgan joying!" (Ezop masali).

2.Podsho doimo bir sartaroshga sochini oldirar edi. Bir kuni sochini bog'dagi so'lim bir joyda oldirayotgan edi,



nogahon sartaroshda o'zgarish yuz berib, ustarani podshoning bo'g'ziga tirab qoldi va uni o'ldirish payiga tushib qoldi. Podsho uning qo'lidan arang qutuldi. Shunda vazir kelib qoldi va voqeadan xabardor bo'lgach, podshoga qarab dedi: Ayb sartaroshda emas, uning turgan joyida. Sartaroshning turgan joyini kovlab ko'rishdi va vazirning gapi to'g'ri ekanligiga iqrор bo'lishdi.

3. Bir qiz o'ziga oshiq bo'lgan yigitga agar shaxmatni yaxshi o'ynab qizning otasini mot qila olsa, unga turmushga chiqishga rozi bo'lishini aytdi. Yigit shaxmatni chuqur o'rgandi. Yillar o'tib u qizning chempion otasini mot qildi. Qiz bundan lol qoldi va unga turmushga chiqishi mumkinligini aytdi. Yigit esa rozi bo'lmadi...

**Keys topshirig'i:** 1.Matnlarni diqqat bilan o'qib chiqing va mazmunini anglashga harakat qiling. Kalit so'z: *turgan joy*.

Maslahat: 2-matndagi yashirin ma'no *kovlash* bilan bog'liq holda ochilishiga e'tibor qarating. 3-matnda kalit so'z - *shaxmat*.

2. Ikkinchi matn qanday davom ettirilsa, yechim topiladi? Maslahat: Gapni chunki deb boshlash ma'qulroq.

3. Birinchi matnni yordamchi so'z, ikkinchi matnni mustaqil so'z deb nomlasak, buni qanday izohlash mumkin?



## **9-topshiriq. Muhokama uchun keys.**

Ma'lumki, to'g'ri nutqning asosiy talablaridan biri adabiy til me'yorlariga rioya qilish, nutqda vararizm, vulgarizm, jargonizm va h.k. noadabiy qatlam leksikasidan qochishdir. Biroq ommaviy-axborot vositalarida tez-tez ana shu kamchilikka yo'l qo'yilishi holatlarini kuzatamiz. Bu hol hatto yirik davlat arboblari, rahbar xodimlar, fan hamda ishlab chiqarish sohasi vakillari, tanqili san'at namoyandalari nutqida ham uchraydi. Ba'zi ko'ngilochar tele va radio dasturlar boshlovchilari maqsadli ravishda, atayin jonli so'zlashuvga murojaat qiladilar.

Adabiy til me'yorlaridan chetga chiqmaslik kerakligi to'g'ri, chunki nazariyaga ko'ra shevalar bora-bora yo'qolib borishi va oxiri yagona adabiy til vujudga kelishi lozim. Bu savodxonlik belgisi bo'lishi bilan birga, zamonaviy ziyoli inson qiyofasini ham namoyon qiladi. Televideniye orqali nufuzli korxonalar yoki muassasa, tashkilot rahbarining "votti"lab so'zlashi, "anaqa" deb tutilishi, ruscha so'zlar qo'shib gapirishi tinglovchining g'ashini keltirishi, ko'z oldimizda rahbarning mavqeini tushirishi tabiiy. Biroq ayni paytda shunday notiqalar borki, ular adabiy til me'yorlarini buzgan holda katta ta'sir

ko'rsatish, ommani o'ziga ishontirish, ortidan ergashtirish kabi qudratiga egalar. Bu notiqlik san'atida e'tirof etiladi. Abdulla Qahhor iborasi bilan aytganda, xalq tili rasmiy, quruq "o'lik" tildan ko'ra jonli ekanligini ham tan olmay iloji yo'q. Ayni paytda, shevlar har bir viloyat tilining jozibadorligi, o'zgachaligini ham ta'minlaydi va o'sha viloyat vakili uchun qulay va qadrdondir. Shevalar ham qandaydir ma'noda insonni o'tmish, tarix hamda ildizlari bilan bog'laydi. Bundan tashqari, telebshlovchilarning jonli muloqot, erkin muhit yaratishlarida oddiy so'zlashuv nutqiga (qisqartmalar, sheva so'zlari, jargonlar va h.k.) murojaat qilishi do'stona, yengil muhit yaratish uchun xizmat qilmasmikin?

### **Vaziyatni baholash uchun savollar:**

1. Mazkur vaziyatda aks etgan asosiy muammo va kichik muammolarni aniqlang.

2. Nutqda sheva hamda jonli so'zlashuv elementlarining qo'llanilishini qanday baholaysiz? Siz shevadan umuman voz kechgan bo'larmidingiz?

3. Muammoni bartaraf qilish uchun qanday yo'l tutish lozim deb o'ylaysiz?

Mazkur keys bosqichlari bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi.

### **Birinchi bosqich:**

O'quvchilar yozma ravishda tarqatilgan keys materialini bilan tanishadilar.

### **Ikkinchi bosqich**

- Vaziyatni individual hamda kichik guruhlariga bo'linib o'rganib, sharhlaydilar.
- Asosiy va ikkilamchi muammolarni ajratadilar.
- Hayotiy vaziyatni tahlil qiladilar va muammo yechimini hal etish usullari va vositalarini belgilaydilar.

- Qarorlari bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadilar.

### **Uchinchi bosqich**

- muammo yechimini topish yuzasidan g'oyalar yig'iladi.
- guruh a'zolarining o'zlarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi mulohazalari borasida kelishadilar;

- muammo yechimining muqobil variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar,

- eng maqbul yechim tanlanadi;
- yechimni tatbiq qilish ketma-ketligi ishlab chiqiladi;
- guruhlar taqdimotga tayyorlanadilar va taqdimot uchun tayyorlagan materiallarini rasmiylashtiradilar.

### **To'rtinchi bosqich**

- Taqdimotlar. Har bir guruh real vaziyat bo'yicha muammoning yechimini taqdim etadi;

- guruh muammo yechimiga kelish uchun tanlagan yo'lni izohlab, yechimi to'g'riligini asoslaydilar;

- har bir guruh boshqa guruh a'zolari tomonidan e'tirozlarga hamda savollarga javob beradi va o'z takliflarini asoslaydi. O'qituvchi bu jarayonda faol ishtirok etadi.

### **Beshinchi bosqich**

- O'qituvchi va barcha guruhlar birgalikda keys natijalari ustida ishlaydilar;

- guruhlar tomonidan taklif qilingan yechimlar birgalikda muhokama qilinadi;

- har bir guruhning muammoni hal qilish bo'yicha taklifiga baho beriladi;

- oxirida o'qituvchi guruh bilan ushbu yechimning hayotga tatbiq etib bo'linishi yoki bo'linmasligi haqida xulosa chiqaradi;

- keys ba'zan yechimini topmasligi mumkinligini ham unutmash lozim.

### **Muammoni aniqlash: Nutq uslubi nima?**

- Stilistika va uslubiyat terminlari ayni tushuncha-hodisani ifodalaydimi?

- Stilistikadan stil (uslub)ning farqi bormi?

- Stil va uslub so'zlarining ma'nolari tengmi?

- Yozuvchining uslubi, rahbarlik uslubi, kiyinish uslubi

deganda nimani tushunasiz?

- Stilistika soha sifatida nimani o'rganadi?

• Til birliklari imkoniyatlaridan nutq tuzishda to'g'ri foydalanish deganda nimani tushunasiz?

• Til birliklarining uslubiy xoslanganligi deganda nimani tushunasiz. Misol keltiring.

• Til birliklarining nutq ko'rinishlarida qo'llanishiga misol keltiring.


**10-topshiriq.** “Mobil telefonning foyda va zararlari” mavzusida ma'rifiy matn tuzing. Gaplar tarkibidagi vositali va vositasiz to'ldiruvchilarni ajrating.

**11-topshiriq.** O'.Hoshimov asarlaridan olingan ushbu gaplarda ishtirok etgan to'ldiruvchilarni aniqlang. To'ldiruvchining nima sababdan so'z kengaytiruvchisi ekanligiga izoh berishga harakat qiling.


1. *Muzaffar yerda yotgan portfelini shaxt bilan yulqib oldi.* 2. *Oqshom chog'lari Toshkent ko'chalari chumoli iniga o'xshab ketadi.* 3. *Alimardon choyni olarkan, zimdan unga qarab qo'ydi.* 4. *... Ammo qaytish yo'lini topolmas, yana may bilan taskin berardi o'ziga.* 5. *Ular o'tmishlari haqida, bolalik xotiralari to'g'risida uzoq-uzoq gaplashib o'tirishardi.* 6. *Alimardon qo'li bilan deraza tomonga imo qilib yana kuldi.*

### 2.3. Noverbal matnlar ustida ishlash


**1-topshiriq.** Kinestik matnni (bosh, oyoq, gavda, qo'l harakati, yurish) izohlang.



**2-topshiriq.** Gavda tutishi matnini izohlang.







**3-topshiriq. Proksemika** (makon va zamonni tashkil qilish -distansiya) **matnini izohlang.**







Рис. 40



Рис. 41



Рис. 42

**4-topshiriq. Ko'z qarashi matnini izohlang.**



**5-topshiriq. Yuz holati matnini izohlang.**



**6-topshiriq. Teri reaksiyasi (terlash, qizarish, oqarish) matnini izohlang.**



**7-topshiriq. Tashqi belgilar (kiyinish, yosh, jinsi, ko'inishi, soch turmagi) matnini izohlang.**



**8-topshiriq. Taktil nonverbal (ko'rishish, teginish, quchoqlashish, o'pishish) matnini izohlang.**







**9-topshiriq.** Berilgan rasmlardan XX asr kommunikativ nutq muammolariga sababchi bo'lgan holatlar ko'rsatilgan javobini toping. Bugunni o'tmish bilan taqqoslang.

*1) turli kasblar va sohani yuzaga kelishi; 2) turli rollarni namoyish etish; 3) muomala qilish, do'st orttirish; 4) obro' topish, muvaffaqiyatga erishish; 5) odamlarga ta'sir o'tkazmoq; 6) ashula aytish; 7) shirin gap, to'g'ri muomala qilish; 8) munozaralarda g'oliblik nashidasini surish; 9) sport bilan shug'ullanish.*



10-topshiriq. Qo'ng'iroqni qabul qiling va bo'sh o'quvchining ota-onasi bilan telefon suhbatini o'tkazing.

## XULOSA

Jamiyatimiz ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy hayotida tub burilishlar, yangilanishlar kechayotgan va barcha sa'y-harakatlar, islohotlar markazida inson manfaatlari turgan hozirgi kun sharoitida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tobora keng ommalashib bormoqda. Ayni paytda kognitiv-sinegretik konsepsiya bilan bir qatorda ta'limda subyektiv-shaxsiy yondashuv ham kuzatilmoqda, bu esa yangi didaktika uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu shaxsga yo'naltirilgan didaktika ta'lim oluvchining individual bilish strategiyalari, qadriyat yo'nalishlari konsepsiyasini o'z ichiga oladi. Bunday ta'lim modeli mashg'ulotning shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkillashtirish texnologiyalarini taqozo etadi. O'z navbatida ular tabaqalantirilgan yondashuv (dasturiy materialning turli murakkablik darajasini); differensial yondashuv (guruhlarni bilimlari, qobiliyatlari, ta'lim muassasasi turi bo'yicha), individual yondashuv (talabalarni bir turdagi guruhlar bo'yicha taqsimlash), subyekt-shaxs sifatida yondashuv (individual bilish strategiyalarini rivojlantirish uchun subyektiv tajribadan foydalanish)ni taqozo qiladi.

Ona tili ta'limiga oid mavzularni o'rganishda matn bilan ishlash texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi.



Matn bilan ishlash texnologiyalarining har biri alohida o'ziga xos vazifalar bajaradi. Umumiy jihatlari esa o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, matn tuzishga, matn turlarini ajrata bilishga, matn ustida ishlay olishga, mustaqil fikrlashga, o'z ustida ishlashga o'rgatadi.

O'quvchilarga matn texnologiyalari orqali ta'lim berish ta'lim oluvchining kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, uni o'zini-o'zi boshqarish, nazorat qilishga undaydi, pedagogika, lingvistika, lingvodidaktika va matnni markazlashtirish tamoyillari yutuqlaridan foydalanishda integrativlik tamoyillarini qo'llash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, matn texnologiyalari orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchining bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozishga doir malaka va ko'nikmalarini boyitadi. O'quvchining aqliy imkoniyatlarining ta'lim talablariga munosib turli metodikalar, didaktik o'yinlar, enerjayer va mashqlar yordamida rivojlantirib borishini ta'minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyov Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Azizhadjaeva N. Pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2001.
6. Tolipov U. Pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2001.
7. Saidaxmedov N.Q. Yangi pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2008.
8. Asqarova O'. Pedagogika. – Toshkent, 2008.
9. Ibragimov X. Pedagogika. – Toshkent, 2008.
10. Ijodkor o'qituvchilar izidan. – Toshkent: O'qituvchi. 1989.



- 11.Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. - Toshkent, 1985. 88 b.
- 12.Internet: <http://www.yspu.yar.ru> (2009, aprel).
- 13.O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. -Toshkent, 1990.- 8 b.
- 14.Turniyozov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi.- Samarqand, 2006.- 26 b.
- 15.Egamberdiyeva N., Xodjayev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, ta'lim va yechim. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013.
- 16.Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2010.
- 17.Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.